

MIGRATSIYA VA FUQAROLIKNI RASMIYLASHTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
3-bosqich kursanti Narziloyeva Shahlo Nodir qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan hozirgi paytda migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish tizimida axborot texnologiyalarini rivojlantirishning istiqbollari, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirishda raqamli transformatsiya strategiyasi va uning soha rivojiga ta'siri, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirishda axborot xavfsizligini himoya qilish masalalari haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, fuqarolik, rasmiylashtirish, zamonaviy texnologiyalar, axborotlashtirish, raqamli transformatsiya, axborot, axborot xavfsizligi, shaxsga doir ma'lumotlar.

Abstract: This article mainly discusses in detail the prospects for the development of information technologies in the current migration and citizenship registration system, the strategy of digital transformation in migration and citizenship registration and its impact on the development of the sector, and the issues of protecting information security in migration and citizenship registration.

Keywords: migration, citizenship, registration, modern technologies, informatization, digital transformation, information, information security, personal data.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются перспективы развития информационных технологий в современной системе регистрации мигрантов и гражданства, стратегия цифровой трансформации в этой сфере и ее влияние на развитие отрасли, а также вопросы защиты информационной безопасности в этой области.

Ключевые слова: миграция, гражданство, регистрация, современные технологии, информатизация, цифровая трансформация, информация, информационная безопасность, персональные данные.

So'nggi o'n yilliklarda insoniyat hayotining barcha jabhalarida raqamli texnologiyalar chuqur kirib kelmoqda. Axborot-kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi, internet tarmog'ining ommalashuvi, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlilining keng qo'llanilishi natijasida dunyo "raqamli jamiyat" bosqichiga qadam qo'ydi. Bu jarayon iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va eng avvalo, ta'lim tizimida tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ta'lim tizimi raqamli transformatsiyaning markazida turadi, chunki aynan ta'lim orqali jamiyat yangi avlodni, yangi tafakkurni va yangi

kasbiy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu bois raqamli transformatsiya bugungi kunda nafaqat texnik jarayon, balki strategik rivojlanish yo‘nalishiga aylangan.

Ta‘kidlash joizki, **raqamli transformatsiya deganda**, mavjud tizimni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tubdan yangilash, ma‘lumotlarni qayta ishlash, uzatish va ulardansamarali foydalanish orqali boshqaruv, ishlab chiqarish, o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqish tushuniladi. Bu jarayon faqat texnik vositalarni joriy etish emas, balki inson faoliyatining mohiyatini, qadriyatlarini va ish uslublarini ham o‘zgartiradi. Raqamli transformatsiya ta‘lim tizimida yangi o‘qitish metodlarini, raqamli platformalarni, elektron baholash tizimlarini, masofaviy ta‘lim shakllarini va talabalarning o‘zlashtirishini tahlil qilish imkonini beruvchi avtomatik dasturlarni hayotga tatbiq etishni nazarda tutadi.¹

Raqamli transformatsiya bu yangi raqamli texnologiyalarni (masalan, narsalar interneti (IoT), sun‘iy intellekt (AI), katta ma‘lumotlar va bulut platformalari) joriy etiladigan jarayon bo‘lib u:

- biznes operatsiyalariga (ishlab chiqarish, xizmatlar va ta‘minot zanjirlari),
- hukumat operatsiyalariga (elektron hukumat, raqamli xizmatlar),
- va ijtimoiy sohalarga (ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya) joriy etiladi.
- OECD raqamli transformatsiya shaxslar, firmalar va hukumatlarga ta‘sir qilishini va tarmoqlararo yondashuvni talab qilishini ta‘kidlaydi.

Innovatsion siyosat — bu ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni (R&D) rag‘batlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, hamda fan, biznes va hukumat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan hukumat choralari majmuidir. Bunday siyosatlar innovatsiyalar iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltirishi mumkin bo‘lgan muhitni yaratadi.²

Umuman olganda, mamlakatimizda davlat boshqaruvini raqamlashtirish, elektron hukumatni rivojlantirish, aholiga raqamli xizmatlarni ko‘rsatishni takomillashtirish hamda kompleks raqamli transformatsiyani amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Sohada erishilayotgan ijobiy o‘zgarishlar “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida 2030 yilgacha eng yetakchi 30 ta davlatlar qatoriga kirishga erishish, shuningdek ko‘zda tutilgan boshqa ustuvor maqsadlar sari tashlanayotgan amaliy qadamlar natijisi, deyishimiz mumkin. Shu bilan birga, raqamli transformatsiyaning to‘liq salohiyatiga erishish hamda “raqamli hukumat” tizimiga o‘tish uchun infratuzilmani rivojlantirishni davom ettirish, barcha fuqarolar uchun raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish, davlat idoralari axborot tizimlarining kiberxavfsizligini samarali ta‘minlash,

¹ <https://bestpublication.net/index.php/ozfan/article/view/4345/3989>

² <https://ui.infocom.uz/articles/raqamli-transformatsiya-va-innovatsion-siyosat-mamlakatlar-tajribasi>

mahalliy IT kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash, sohaga sarmoya kiritishga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish hamda mintaqaviy va global raqamli texnologiyalar bozoriga integratsiyalashuvni jadallashtirish maqsadga muvofiq. O'z navbatida, O'zbekistonning muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyasi nafaqat mamlakatning texnologik imkoniyatlarini oshiradi, balki Markaziy Osiyo mintaqasida raqamli o'zaro bog'liqlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston tomonidan mintaqada elektron hukumat va raqamli davlat xizmatlarini rivojlantirishda idoralararo aloqalarni ta'minlash orqali hamkorlikni jadallashtirishi Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va integratsiyaga zamin yaratadi.³

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivoji sharoitida migratsiya jarayonlari tobora jadallashib bormoqda. Bu jarayonlar bilan bir qatorda shaxsga doir ma'lumotlarning to'planishi, saqlanishi va ulardan foydalanish ko'lami ham tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasida fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari bilan ishlash axborot xavfsizligini ta'minlashni, bu kabi ishlarga qonuniylik prinsipiga amal qilgan holda va mas'uliyatli yondashishni talab etadi. Chunki shaxsga doir ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi inson huquqlarining buzilishiga va jamiyatda migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyatiga ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Eng avval shaxsga doir ma'lumotlar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu soha davlat tomonidan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. Bu funksiya esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. Vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya va personallashtirish departamenti hisoblanadi.

Shaxsga doir ma'lumotlar bazasi mulkdor va (yoki) operator, shuningdek uchinchi shaxs tomonidan amalga oshiriladigan vazifalarni bajarish uchun zarur hamda yetarli bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish yo'li bilan shakllantiriladi.

Shaxsga doir ma'lumotlarni **yig'ish, tizimlashtirish** tartibi va prinsiplari mulkdor va (yoki) operator tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Shaxsga doir ma'lumotlarni **saqlash** shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish chog'ida ilgari bildirilgan maqsadlar talab etadigan darajada subektni identifikatsiya qilish imkonini beradigan shaklda amalga oshiriladi.

Shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash muddati ularni yig'ish va ularga ishlov berish maqsadiga erishish sanasi bilan belgilanadi.

³<https://uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7389-o-zbekistonning-raqamli-transformatsiyasi-markaziy-osiyoda-mintaqaviy-integratsiyaga-yordam-bermoqda.html>

Shaxsga doir ma'lumotlarni **o'zgartirish va to'ldirish** subektning murojaati asosida, ushbu murojaat berilgan paytdan e'tiboran uch kunlik muddatdan kechiktirmay mulkdor va (yoki) operator tomonidan amalga oshiriladi.

Haqiqatga to'g'ri kelmaydigan shaxsga doir ma'lumotlarni o'zgartirish va to'ldirish bunday nomuvofiqlik aniqlangan paytdan e'tiboran darhol amalga oshiriladi.

Mulkdorning, operatorning va uchinchi shaxsning faoliyati maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan harakatlar shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishdir.

Mulkdor, operator va uchinchi shaxs tomonidan shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish bu ma'lumotlarning zarur darajada himoya qilinishini ta'minlash sharti bilan faqat ushbu shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha ilgari bildirilgan maqsadlar uchun amalga oshiriladi.

Mulkdor va (yoki) operatorning, shuningdek uchinchi shaxsning shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan xodimlari tomonidan shaxsga doir **ma'lumotlardan foydalanish** faqat ularning o'z kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Mulkdor va (yoki) operatorning, shuningdek uchinchi shaxsning shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan xodimlari o'ziga ishonib topshirilgan yoki kasbiy, xizmat yoxud mehnat majburiyatlarini bajarishi sababli ma'lum bo'lib qolgan shaxsga doir ma'lumotlarning oshkor etilishiga yo'l qo'ymasligi shart.

Shaxsga doir ma'lumotlarni muayyan shaxsga oshkor etishga qaratilgan harakatlar **shaxsga doir ma'lumotlarni berish** hisoblanadi.⁴

Jumladan, Prezidentimizning "Ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish sohasidagi faoliyatini raqamlashtirish orqali sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida migratsiya va personallashtirish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni belgilangan:

- ichki ishlar organlari migratsiya va personallashtirish bo'linmalarini bosqichma-bosqich tezkorlik va shaffoflik tamoyillari asosida aholiga yanada qulay va sifatli xizmat ko'rsatuvchi "servis bo'linmalar"ga aylantirish;
- migratsiya va personallashtirish sohasida respublika — viloyat — tuman (shahar) bo'linmalar faoliyatini tashkil etishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish va ular samaradorligini oshirish;
- migratsiya va personallashtirish sohasida ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini raqamlashtirish;
- shaxsga doir ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligini ta'minlash;

⁴ 02.07.2019. O'RQ-547-son Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida

• sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali mavjud axborot tizimlarida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash.⁵

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maqolada kelgusida ushbu sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Jumladan, sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, biometrik identifikatsiya tizimlarini joriy etish orqali migratsiya jarayonlarini yanada takomillashtirish mumkinligi asoslab berilgan. Bu esa xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirish bilan birga, xavfsizlikni ishonchli ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://bestpublication.net/index.php/ozfan/article/view/4345/3989>
2. <https://ui.infocom.uz/articles/raqamli-transformatsiya-va-innovatsion-siyosat-mamlakatlar-tajribasi>
3. <https://uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7389-o-zbekistonning-raqamli-transformatsiyasi-markaziy-osiyoda-mintaqaviy-integratsiyaga-yordam-bermoqda.html>
4. 02.07.2019. O'RQ-547-son Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida
5. 19.01.2026. PQ-14-son Ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish sohasidagi faoliyatini raqamlashtirish orqali sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida

⁵ 19.01.2026. PQ-14-son Ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish sohasidagi faoliyatini raqamlashtirish orqali sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida